

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUNCHILIK
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**
№ CM3800227810

- 1. Loyihaning turi:** Shartnoma № 1/13.
- 2. Loyihaning turkumi:** Korxonalar (tashkilot, muassasalar) uchun qattiq maishiy chiqindilar olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish.
- 3. Loyihaning ishlab chiquvchisi va "E-huquqshunos" elektron tizimiga kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:**
Farg'ona shahar tibbiyot birlashmasi bilan "FARG'ONA TOZALIK SANITAR SERVIS" MChJ o'rtasida ishlab chiqilgan va umumiy bahosi 3 599 040 (Uch million besh yuzi to'qson to'qqiz ming qirq) so'm bo'lgan hamda 2022-yil 24-yanvar kuni "E-huquqshunos" elektron tizimi orqali huquqiy ekspertizaga taqdim etilgan shartnoma loyihasi.
- 4. Loyiha bo'yicha taklif:**

Mazkur shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida huquqiy ekspertizadan o'tkazilib, unga ko'ra:

- Shartnoma loyihasining amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga javob berishini va qonunga mos holda tuzilganligini;

- Tomonlarning shartnomada ko'rsatilgan mulkiy javobgarliklari va o'zaro nizolarni hal qilish yo'llari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni asosida belgilanganligi aniqlandi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

XULOSA:

Mazkur shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Markaz bosh yuriskonsulti



A.R.Abduraximov

2022-yil 26-yanvar.

Korxonalar (tashkilot, muassasalar) uchun qattiq maishiy chiqindilar olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish.

№1/13-sonli SHARTNOMA

2022-yil 26-yanvar

Farg'ona shahar

Bundan buyon matnda, "Ijrochi" deb ataluvchi korxonalar, Nizom asosida faoliyat olib boruvchi "FARG'ONA TOZALIK SANITAR SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyati nomidan rahbar B.Xo'jaev bir tomondan va bundan buyon matnda "Buyurtmachi" deb yuritiluvchi Farg'ona shahar tibbiyot birlashmasi (Bolalar shifohonasi) nomidan boshlig'i M.N.Shokirov ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida shartnoma tuzdilar:

1. SHARTNOMA MAZMUNI

- 1.1 "Buyurtmachi" topshiradi, "Ijrochi" esa shartnomada ko'rsatilgan haq evaziga "Buyurtmachi" tomonidan maxsus belgilangan joyga yig'ilgan Qattiq maishiy chiqindilar (keying o'rinlarda QMCh)ni tashib chiqib ketishni o'z zimmasiga oladi. "Buyurtmachi" esa xizmat to'lovlarini to'lab berishi shart.
- 1.2. QMCH umumiy hajmi bir oyga 26.08 m³, bir yilga 78.24 m³ tashkil etadi.
- 1.3. Ushbu shartnomani imzolash paytidagi amaldagi narx 15 foizlik QQS bilan har bir m³ QMCh uchun 46 000 so'm.
- 1.4. Shartnoma bo'yicha bir yillik ko'zda tutilgan to'lov summasi **3 599 040 (Uch million besh yuzi to'qson to'qqiz ming qirq) so'm.**

2. "BUYURTMACHI"NING MAJBURIYATLARI

- 2.1 QMCh qattiq maishiy chiqindilarni quydagi ko'rsatilgan manzilga, ya'ni Belgilangan joy olib chiqib tashlash.
- 2.2 Yirik xajmdagi chiqindilar va shox-shabbalarni tashib ketish uchun alohida haq evaziga bir marotabalik shartnoma tuzish.
- 2.3 QMChni o'z vaqtida olib chiqib ketilishini doim nazorat qilish, tasdiqlangan yo'nalish jadvali buzilgan hollarda +998 91 276 12 76 telefoniga telefonogramma yo'llash orqali "Ijrochiga" ma'lumot berish.
- 2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.11.2018-yildagi 5580-sonli Farmoniga asosan QMChni olib chiqib ketish xizmati bo'yicha to'lovlarni "Ijrochi"ga 100 foiz oldindan to'lash asosida amalga oshirish.
- 2.5. Buyurtmachi kadastr xujjatidagi ko'rsatilgan kv.m maydonini yozma ravishda ko'rsatilishi shart. To'lovlar (kv.m yoki reys) bo'yicha xisob kitob qilinadi.
- 2.6. Buyurtmachi maishiy chiqindilarni markaziy ko'chalarning belgilangan joylariga kech soat 18:00 dan ertalabki 06:00 gacha olib chiqib tashlash.

3. "IJROCHI"NING MAJBURIYATLARI

- 3.1. Shartnomada ko'rsatilgan QMCh tashlanadigan maxsus manzildan chiqindilarni maxsus avtomashinalarda jadval asosida olib chiqib ketilishini ta'minlash.
- 3.2. "Buyurtmachi"ning buyurtmasiga asosan qo'shimcha to'lov hisobiga qurilish va yirik xajmdagi chiqindilarni, shox-shabbalarni olib chiqib ketish uchun transport ajratish.
- 3.3. Har oy boshiga o'tgan xisobot oy uchun shartnoma asosida "Buyurtmachi" xisob raqamiga to'lov talabnomasini yuborish.
- 3.4. "Buyurtmachi" tomonidan QMChni o'z vaqtida olib chiqib ketilmagani to'g'risida ma'lumot kelib tushgandan so'ng 1 kun muddat ichida ko'rsatilgan manzildan chiqindilarni olib chiqib ketish.
- 3.5. Biriktirilgan yo'nalishda sanitar tozalik nazoratini olib borish.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI

- 4.1. "Buyurtmachi" shartnomada ko'rsatilgan muddatdan keltirilgan xar bir kun uchun belgilangan muddatda to'lanmaga summaning 0.4% miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lovning 50% dan oshmagan miqdorida "Ijrochi"ga penya to'laydi. Agar "Ijrochi" ushbu xabarnomadan so'ng o'z vakilini dalolatnoma tuzish uchun yubormasa, yoki 24 soat ichida QMCh olib chiqib ketilmasa, "Buyurtmachi" jamoatchilik

ishtrokida dalolatnoma tuzadi va ushbu dalolatnoma aybdorga nisbatan shartnomada ko'rsatilgan jazo turlarini qo'llash uchun asos xisoblanadi.

4.2. "Ijrochi" o'z vaqtida QMCh olib chiqib ketmaganligi uchun ikki tomon vakillari tomonidan imzolangan dalolatnoma asosida har bir kun uchun olib chiqib ketmagan QMCh xajmi qiymatidan 0.5% miqdorida, lekin umumiy summa bajarilmagan ish summasining 50%dan oshmagan miqdorda "Buyurtmachi"ga peniya to'laydi.

4.3. "Buyurtmachi" shartnomada ko'rsatilgan mudatdan kechiktirilgan xar bir kun uchun belgilangan mudatda to'lanmagan summaning 0.4% miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lovning 50% dan oshmagan miqdorida "Ijrochi"ga peniya to'laydi.

4.4. Jarima va peniya to'lash tomonlarni shartnoma shartlarini bajarishdan ozod etmaydi.

5. QO'SHIMCHA SHARTLAR

5.1. "Ijrochi" xom-ashyo, yoqilg'i-moylash maxsulotlarni va eng kam oylik va ish xaqi miqdori o'zgarishi munosabati bilan belgilangan tartibda bir tomonlama xizmat narxlarini o'zgartirishga xaqlidir va u "Buyurtmachi"ni bu to'g'rida yozma ravishda ogohlantiradi.

5.2. SHartnomaning 1.2. bandida ko'rsatilgan QMCHning hajmi o'zgargan taqdirda, Ijrochi tegishli tartibda hujjatlarni rasmiylashtirib, olingan QMCHning xajmini ko'rsatgan holda Buyurtmachiga qayta-xisob kitob qilish uchun taqdim etadi.

5.3. Fors-major xolati sodir bo'lgan tomonlar shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlardan ozod etiladilar. (korxonaning tugatilishi, raxbar yoki javobgar shaxs o'zgarishi, moliyaviy qiyinchilik kabilar fors-major xolatiga kirmaydi).

5.4. Shartnomani bajarish paytida yuzaga kelgan muammolar tomonlarning o'zaro muzokaralari orqali xal qilinishi mumkin bo'lmagan xollarda tumanlararo iqtisodiy sudlar tomonidan xal qilinadi.

5.5. Tomonlarning manzili, korxonasi nomi, xisobot raqami o'zgargan taqdirda xamda QMCH hajmi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar paydo bo'lganda bir tomon ikkinchi tomonga 10 kun ichida yozma ma'lumot berishi shart.

5.6. Shartnomaning 1.2. bandida ko'rsatilgan QMCHning hajmi "Buyurtmachi"ning aybi bilan taqdim etilmasa yoki "Buyurtmachi" "Ijrochi"ning yuk tashish xujjatlarini rasmiylashtirishdan bosh tortsa "Ijrochi" jamoatchilik vakili ishtirokida dalolatnoma tuzadi. Ushbu dalolatnoma ish to'liq miqdorda bajarildi deb xisoblanishiga va to'liq miqdorda to'lov amalga oshirilishiga asos bo'ladi.

6. SHARTNOMANING MUDDATI

6.1. Ushbu shartnoma muddati "24" yanvar 2022-yildan "31" dekabr 2022-yilgacha belgilanadi.

6.2. Shartnomani mudatidan oldin to'xtatmoqchi bo'lgan tomon ikkinchi tomonni bu xaqida bir oy oldin yozma ravishda ogohlantiradi aks holda shartnoma shartlari o'z kuchini yo'qotmagan xisoblanadi.

6.3. Tomonlar shartnoma muddati tugaganidan so'ng yozma ravishda boshqa munosabat bildirmasalar shartnoma bekor qilgunga qadar o'z kuchini yo'qotmagan xisoblanadi.

6.4. Shartnoma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.02.2019-yildagi №95-sonli Qaroriga ko'ra qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish qoidalariga asoslanib 2 nusxada tuziladi, ular bir xil qonuniy kuchga ega bo'lib tomonlarda bir nusxadan saqlanadi.

7. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

7.1 Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar. 7.2 Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar. 7.3 Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosobalar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kyelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning

(yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

7.4 Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

7.5 Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

8. TOMONLARNI YURIDIK MANZILI VA RIKVIZITLARI

«IJROCHI»	«BUYURTMACHI»
“FARG’ONA TOZALIK SANITAR SERVIS” MCHJ	Farg’ona shahar tibbiyot birlashmasi
A.Navoiy 37 a uy 2 xona	Manzil: Qirlola 2-uy
X/r:20208000900292474001	X/r:401422860304017073101054001
Farg’ona Milliy bank	Bank:Markaziy bank Toshket shaxar HKKM
MFO: 00493 INN: 302803970	MFO: 00014 INN:200145074
Tel: (90) 561-35-00	Tel: 73-242-97-41
Raxbar:  B.Xujaev	 M.N.Shokirov

